

AVLAYEV ORIF UMIROVICH

ILMIY SEMINAR



177
A-12.
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Avlayev Orif Umirovich

ILMIY SEMINAR

14376/2-
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

«SARBON LLS»
TOSHKENT – 2024

AVLAEV ORIF UMIROVICH

ILMIY SEMINAR. Darslik. – T.: "SARBON LLS" nashriyoti, 2024. – 334 bet.

Taqrizchilar:

S.R.Mirzayeva – Chirchiq davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrası dotsent, p.f.n

Sh.B.Shamsiyev – O'zbekiston Milliy universiteti "Psixologiya" kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari doktori

Ma'sul muharrir:

A.I. Rasulov – O'zbekiston Milliy universiteti "Psixologiya" kafedrası professori, psixologiya fanlari doktori

O'quv qo'llanma O'zbekiston Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Ilmiy seminar» fanining namunaviy o'quv dasturiga asosan yozilgan va 70310901– Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) hamda 70110102 – Pedagogika va psixologiya magistratura mutaxassisliklari bo'yicha tahsil olayotgan magistrantlarga mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmada ilmiy tadqiqot faoliyatining mohiyati, maqsad va vazifalari, asosiy tamoyillari va tadqiqot olib borish jarayonining xususiyatlari yoritib berilgan. Unda fan haqida tushuncha, uning jamiyat rivojlanishidagi o'rni, ilmiy tadqiqot turlari, strukturasi va usullari, ilmiy tadqiqotlarda modellashtirish, eksperimental tadqiqotlarni rejalashtirish va tahlili, tadqiqot natijalariga statistik ishlov berish usullari, o'lehash texnikalari va usullari, ilmiy-texnik va patent ma'lumotlarini o'rganish, tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish masalalarining umumiy tomonlari yoritilgan.

O'quv qo'llanmadan pedagogika va psixologiya yo'nalishlari bo'yicha tayanch doktorant, stajyor-tadqiqotchi izlanuvchilar va ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan mustaqil izlanuvchilar, tadqiqotchilar, bakalavriat talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 25 iyundagi 218-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berilgan.



KIRISH

Oliy ta'lim muassasalari magistrLARining intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'qitishning yangi, innovatsion shakl, metod va vositalari bilan tanishtirish, pedagoglar uchun zarur kasbiy kompetentlik sifatlari va kreativ qobiliyat mohiyati bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur o'quv qo'llanmani tayyorlashdan maqsad – magistrlarda pedagogika va psixologiya sohalarining maxsus hamda tarmoq yo'nalishlari, tamoyillari, qonuniyatlari, funksiyalarini nazariy-uslubiy jihatdan fundamental va amaliy tadqiqotlar doirasida o'rganish, muammoning psixologik masalalarini magistrlik bilimlar doirasida tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish, uni ilg'or horijiy tajribalarga asoslanib amaliyotda qo'llay olish imkoniyatlarini oshirishdan iborat.

O'quv qo'llanmaning vazifalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

magistrlarda ilmiy adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirib borish;

tanlangan ilmiy tadqiqot mavzusi bo'yicha muammoni chuqur va izchil o'rganish imkoniyatiga ega bo'lish;

o'zining olib borayotgan tadqiqot natijalari doirasida taqdimolar hamda ilmiy diskussiya shaklida bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;

magistrlik dissertatsiya ishining nazariy-metodologik qismini akademik yozish va ilmiy tahlilni amalga oshirish;

psixologik va pedagogik tadqiqotlarda ilmiy-akademik muammolarning strategik jihatlarini prognozlashtirish shakl va usullarini amalda qo'llashga orgatish va boshqalar.

Ta'lim jarayonida zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarining tashkiliy, texnik va didaktik imkoniyatlaridan xabardor bo'lishlari, ta'lim amaliyotida o'qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish, kompetentlik sifatlari va kreativlik qobiliyatini izchil rivojlantirib borish ko'nikma-malakalarini hosil qilish uchun

sharoit yaratib qolmay, kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanish borasidagi malakalarining mustahkamlanishini ham ta'minlaydi.

Shuningdek, magistrlar ilmiy innovatsiyalarni asoslash, yaratish va amaliyotga samarali tatbiq etish yo'llaridan xabaror bo'ladilar, innovatsion xarakterga ega mualliflik dasturlarini ishlab chiqish malakalarini muvaffaqiyatli o'zlashtiradilar. Bu esa, o'z navbatida o'qitish jarayonida talabalarning faolliklarini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1 bob. MAGISTRLIK ILMIY TADQIQOT ISHINI TAYYORLASH ASOSLARI

1-mabzy. ILMIY TADQIQOT TURLARI

Reja:

- 1.1. Tadqiqot turlari.
- 1.2. Fundamental va amaliy tadqiqot bosqichlari.
- 1.3. Tadqiqot mohiyati.

Tushunchalar va tayanch iboralar

Tadqiqot turlari, fundamental va amaliy tadqiqot bosqichlari tadqiqot mohiyati, qayta o'tkaziladigan tadqiqot.

1.1. Tadqiqot turlari

Ilmiy tadqiqot (izlanish) uchta tarkibiy qism: *insonning maqsadli faoliyati, ilmiy mehnat predmeti va ilmiy mehnat vositalaridan iboratdir.*

Insonning maqsadli ilmiy faoliyati tadqiqot obyekti haqida (bo'yicha) yangi bilimlarga yoki obyekt haqidagi (bo'yicha) mavjud bilimlarni to'ldirishga erishishda anglab yetishni bilishning amaliy usullaridan va ilmiy uskunalardan (o'lchov, hisoblash texnikalaridan) mehnat vositalaridan foydalanishga tayanadi.

Ilmiy mehnat predmeti tadqiqotining faoliyati yo'naltirilgan tadqiqot obyekti va u haqidagi (oldingi) bugungacha bo'lgan bilimlar. Tadqiqot obyektiga moddiy dunyoning har qanday material (elektrotexnik uskunalar, elektrlashtirilgan qurilmalar, mashina va mexanizmlar), jarayonlar (texnologik, energetik, agrotexnik) elektromagnit, moddiy materiallar elementlari va h.k.lar) kiradi.

Ilmiy tadqiqotlar ko'zlangan maqsadi, tabiat yoki ishlab chiqarish bilan bog'liqlik darajasi, ilmiy ishning xarakteri va chuqurligi (qamroviga) qarab fundamental va amaliy tadqiqotlarga bo'linadi. Ilmiy tadqiqotlar jarayoni nazariy va eksperimental tadqiqotlardan, natijalar esa, ilmiy ishlanmalardan iborat bo'ladi.

Fundamental tadqiqotlar prinsipial yangi bilimlarni (yaratish) barpo etish va oldindan mavjud bilimlar sistemasini rivojlantirishga qaratiladi va undan maqsad tabiatning yangi qonunlarini yaratish (kashf etish) voqeliklar orasidagi bog'liqliklarni ochib berish va yangi nazoratlar yaratishdir. (Masalan, psixodinamik nazariyasi psixoanaliz ilmiy – metodologiyasini yaratish va h.k.lar).

Amaliy tadqiqotlar psixologiya sohasida yangi ishlab chiqarish test vositalarini va h.k.larni yaratish yoki mavjudlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lib, uning maqsadi fundamental tadqiqotlarda to'plangan ilmiy omillarni amaliy tadqiqotlar orqali o'z o'rniga qo'yishdir.

Nazariy tadqiqot qabul qilingan ilmiy gipotezani analitik rivojlantiradi va tadqiqot olib borilayotgan ilmiy muammoning nazariyasini yaratilishiga olib kelishi kerak. Boshqacha aytganda, bilimlar tizimini tadqiqot olib borilayotgan muammo doirasida ilmiy umumlashtirishdir. Yaratilgan ushbu nazariya izlanishlar olib borilayotgan muammoga oid voqelik va faktlarni oldindan belgilab va tushintirib bera olish hamda xulosalarning to'g'riligini ilmiy asosda isbotlash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Eksperimental tadqiqotlar – ilmiy asosda qo'yilgan tajribadir. Eksperimental tadqiqotlardan ko'zlangan maqsad ilmiy muammo (masala) yechimining to'g'riligini tekshirib ko'rish bo'lib, uning natijasini tasdiqlashi yoki inkor etishi mumkin. Tadqiqot olib borilayotgan obyekt (muammo yoki masala) bo'yicha fundamental izlanishlar olib borilmagan yoki nazariy asoslari yetarli bo'lmagan hollarda eksperimental tadqiqotlar natijalari muammoni nazariy yechimlarini shakllantirishga (topishga) asos yaratadi. Ilmiy tadqiqotning navbatdagi bosqichi eksperimental va nazariy tadqiqotlar natijalarini solishtirib (taqqoslab) ko'rib ularni bir-biriga mos kelishi (to'g'ri kelishi) haqida, hamda ilgari surilgan ilmiy gipotezani tasdiqlashi haqida uzul-kesil xulosa qilinadi. Ayrim hollarda natijalar bir-biridan ancha farq qilsa yoki umuman to'g'ri kelmasa, ilmiy gipotezaga o'zgartirish kiritish yoki gipotezani inkor etishga to'g'ri keladi. Tadqiqot natijalariga yakun yasash, olingan natijalar tadqiqot

maqsadi va vazifalariga to'la javob berishi hamda umumiy xulosa va tavsiyalarni shakllantirishi ilmiy izlanishning yakuniy bosqich vazifalariga kiradi.

Psixologiya sohasida, jumladan, amaliy psixologiya sohasida tadqiqotlar natijalarini o'zlashtirish (amalda tatbiq etish) bosqichi ham ko'zda tutiladi. Bunda tadqiqot natijalarini yoki texnologik ishlanmalarini amaliyotga tatbiq qilish ishlari amalga oshiriladi. Ilmiy tadqiqot turlari muayyan bir ketma-ketlikda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

1.2. Fundamental va amaliy tadqiqot bosqichlari

Fundamental va amaliy tadqiqotlar quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

1-bosqich. Tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslash va ifoda etish:

- bo'lajak tadqiqotlarga taalluqli muammolar bilan mamlakat va xorijiy adabiy manbalar bo'yicha tanishish, uning dolzarbligini asoslash;
- muammolar bo'yicha tadqiqotlarning muhim yo'nalishlarini belgilash va tasniflash;
- mavzuni ifodalash va tadqiqot annotatsiyasini tuzish;
- texnikaviy topshiriqni ishlab chiqish va ilmiy tadqiqot ishlari (ITI) umumiy kalendar rejasini tuzish;
- kutilayotgan iqtisodiy yoki boshqa foydali samarani oldindan belgilash.

2-bosqich. Tadqiqotning maqsadi va vazifasini ifodalash:

- mamlakat va xorijiy nashrlar bibliografik ro'yxatini tanlash va tuzish (monografiya, darsliklar, maqolalar, patentlar, kashfiyotlar va b.), shuningdek, tanlangan mavzu bo'yicha ilmiy-texnikaviy hisobot tuzish;
- mavzu bo'yicha manbalar va referatlar annotatsiyasini tuzish;
- mavzu bo'yicha masalalarning ahvolini tahlil qilish;
- tadqiqot maqsad va vazifalarining bayonini tuzish.

3-bosqich. Nazariy tadqiqotlar:

- tadqiqot obyekti va tadqiqot predmetini tanlash, fizik mohiyatini o'rganish va tadqiqot topshirig'i asosida ishchi farazni shakllantirish;